

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 320 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimatrov Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoeva Mehriyo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	258
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIK XIZMATLAR KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.....	264
Xalimov Javlonbek Shaxriyorovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	271
Muxammadov Nodir Karimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	277
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
IQTISODIYOT VA TA'LIM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA TA'LIM BRENDINGI UCHUN IQTISODIY JIHATLAR.....	282
Dilfuza Shokirova	
OLIY TA'LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	291
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
O'ZBEKISTON BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI INSON KAPITALI RIVOJI BILAN UYG'UNLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL YONDASHUV.....	295
Xushvaqto'v Nodirbek Nomoz o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIYAVIY STRESS-TEST TIZIMINI YARATISH METODOLOGIYASI	299
Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li	
HOZIRGI SHAROITDA BANK FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	303
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
ENSURING SECURITY IN THE DIGITAL WORLD: HOW THE INSURANCE INDUSTRY CAN COUNTER CYBERATTACKS	308
D.D. Omonova	
JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH JARAYONIDA BYUDJET-SOLIQ SIYOSATINI ISLOH QILISH MASALALARI	314
Hojiakbar Zaynabidinov	



JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH JARAYONIDA BYUDJET-SOLIQ SIYOSATINI ISLOH QILISH MASALALARI

Hojiakbar Zaynabidinov

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada soliq imtiyozlarining bugungi holati normativ-huquqiy hujjatlar kesimida tahlil qilinadi. Xususan, soliq imtiyozlarining qo'llanish natijalari, ulardan samarali foydalanish darajasi, Prezident qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida joriy etilgan soliq imtiyozlarining amaldagi holati hamda ularning davlat byudjetiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, soliq imtiyozlarining o'ziga xos ijobiy va salbiy jihatlari ilmiy tahlil asosida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: normativ-huquqiy hujjatlar, soliq imtiyozlari, kichik biznes, Soliq kodeksi, Vazirlar Mahkamasi, eksport, import, davlat byudjeti, foyda solig'i.

Abstract. This article analyzes the current state of tax incentives in the context of regulatory legal documents. It examines the outcomes of tax incentives, the effectiveness of their application, as well as the status of tax incentives introduced based on presidential decrees and other normative acts. The impact of these tax incentives on the state budget, along with their unique positive and negative aspects, is presented through scientific analysis.

Keywords: regulatory legal documents, tax incentives, small business, Tax Code, Cabinet of Ministers, export, import, state budget, profit tax.

Аннотация. В данной статье проводится анализ современного состояния налоговых льгот в разрезе нормативно-правовых документов. Рассматриваются результаты применения налоговых льгот, эффективность их использования, а также статус льгот, введенных на основе решений Президента и других нормативных актов. Освещается влияние налоговых льгот на государственный бюджет, а также их положительные и отрицательные стороны.

Ключевые слова: нормативно-правовые документы, налоговые льготы, малый бизнес, Налоговый кодекс, Кабинет Министров, экспорт, импорт, государственный бюджет, налог на прибыль.

KIRISH

Hozirning o'zida Respublikamizda mahsulot ishlab chiqaruvchilar erkin savdo orqali 280 million iste'molchisi bo'lgan mintaqaviy bozorlarga chiqish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqining kengaytirilgan preferensiyalar tizimi — "GSP+" doirasida O'zbekistondan 6 mingdan ortiq mahsulot turini Yevropa bozoriga imtiyozli shartlarda eksport qilish mumkin.

Mavjud transport koridorlarini diversifikatsiya qilish maqsadida O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni Transafg'on temir yo'li orqali Janubiy Osiyoga, O'zbekiston – Qirg'iziston – Xitoy temir yo'li orqali Osiyo – Tinch okeani mintaqasiga hamda Janubiy Kavkazni kesib o'tadigan multimodal transport koridori orqali Yevropa mamlakatlariga yetkazish uchun imkoniyatlar yaratish bo'yicha ham amaliy harakatlar olib borilayotgani hammamizga yaxshi ma'lum.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq tizimining barqarorligi iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning tahlilida turli mamlakatlar tajribasi, nazariy yondashuvlar va empirik tadqiqotlar muhim o'rin tutadi. T. Atkinson va J. Stiglitz tomonidan ilgari surilgan samarali va adolatli soliqqa tortish tamoyillari soliq tizimining barqarorligi uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ularning fikricha, soliq siyosati iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ijtimoiy adolatni ham ta'minlashi lozim. Aynan ushbu muvozanatga erishish soliqlarning barqaror bo'lishi va aholining ularga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston kontekstida bu masala O. Xidirov va M. Rajabov tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning tadqiqotlarida iqtisodiy muvozanatni ta'minlash va soliq bazasini kengaytirish orqali barqarorlikka erishish yo'llari yoritilgan. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, soliqqa tortish bazasining keng bo'lishi, soliq yukining



prognoz qilinadigan darajada saqlanishi iqtisodiy faollikni pasaytirmasligi kerak. Soliq yukining optimal darajada bo'lishi esa rasmiy sektorni kengaytirishga va soliqlardan bo'yin tovlash ko'lamini kamaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, A. Tanzi tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar soliq to'lov intizomini oshirishda ma'muriy islohotlarning rolini yoritadi. U davlat moliyasini boshqarishda soliq ma'murchiligining mustahkam bo'lishi daromadlarni barqarorlashtirishga yordam berishini ta'kidlaydi. Tanzi shuningdek, soliq to'lovchilarning xatti-harakatiga ta'sir etuvchi omillar — qonunchilik barqarorligi, soliqlar bo'yicha ma'lumotlarning shaffofligi va soliq organlariga bo'lgan ishonchni alohida qayd etadi.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ) va Jahon banki tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda esa rivojlanayotgan davlatlarda soliq bazasining torligi, ma'muriy salohiyatning yetishmasligi hamda norasmiy iqtisodiyot ulushining yuqoriligi soliq tizimining beqarorligiga olib kelayotgan asosiy muammolar sifatida qayd etiladi. Jahon bankining "Global Economic Prospects" tahlilida O'zbekistonda olib borilayotgan soliq islohotlari natijasida davlat byudjeti daromadlarining YAIMga nisbatan barqarorlashib borayotgani alohida ta'kidlanadi.

Bundan tashqari, iqtisodiy diversifikatsiya soliq tizimi barqarorligining muhim tashqi omili sifatida E. Zolt tomonidan o'rganilgan. Uning fikricha, soliq tushumlarining turli tarmoqlar bo'yicha mutanosib taqsimlanishi fiskal barqarorlikni ta'minlaydi. Monotarimoq yoki xomashyo eksportiga yuqori darajada tayanadigan iqtisodiyotlar esa soliq tushumlarining keskin o'zgaruvchanligi sababli byudjet siyosatining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati tadqiqotlarida, xususan M. Keen tomonidan ishlab chiqilgan "tax compliance costs" modeli soliqlarni soddalashtirish orqali nafaqat ma'muriy xarajatlarni kamaytirish, balki soliq to'lovchilarning ijobiy xulqini shakllantirish mumkinligini isbotlaydi. Bu esa uzoq muddatda soliq tushumlarining barqaror bo'lishiga olib keladi.

Umuman olganda, soliq tizimining barqarorligini ta'minlaydigan omillar o'zaro bog'liq bo'lib, ular — huquqiy bazaning aniq va izchil bo'lishi, fiskal siyosatning oldindan bashorat qilinishi, soliq yukining adolatli bo'lishi, institutsional salohiyatning yuqoriligi, iqtisodiy faollik darajasi va siyosiy iqlimning barqarorligi — kabi elementlardan iborat. Har bir davlat uchun ushbu omillarning optimal kombinatsiyasi o'ziga xos bo'lib, ular soliq tizimining izchil rivojlanishiga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sintez va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish har qanday davlatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda ham erkin bozor tamoyillarini joriy etish, monopoliyalarni cheklash va tadbirkorlik subyektlari uchun teng sharoit yaratish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmogda.

Raqobat muhitini rivojlantirishda joriy etilgan mexanizmlarni ko'rib chiqsak, hozirgi kunda mamlakatimizda raqobatni rivojlantirish maqsadida bir qator institutlar va huquqiy mexanizmlar shakllantirilgan. Jumladan, davlat tomonidan monopoliyalarning cheklanishi, erkin bozorni ta'minlashga qaratilgan normativ-huquqiy asoslar qabul qilingan. Shuningdek, mazkur tuzilma bozorda noqonuniy raqobatni aniqlash, yirik xo'jalik subyektlarini nazorat qilish va sun'iy to'siqlarni bartaraf etish vazifalarini bajaradi.

Davlat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida taqdim etilgan ayrim imtiyozlar qayta ko'rib chiqilmogda. Chunki bunday mexanizmlar ayrim hollarda raqobat muhitining buzilishiga olib kelishi mumkin. Xususiylashtirish jarayonlarining jadallashuvi esa yangi tadbirkorlar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratmogda.

Mazkur mexanizmlar ma'lum ijobiy natijalar bergan bo'lsa-da, raqobat muhitini to'liq shakllantirish uchun yetarli emas.

Raqobat muhitini yaxshilashda soliq siyosati alohida ahamiyatga ega. Biroq O'zbekistonda soliq ma'murchiligi bilan bog'liq bir qator muammolar mavjud. Xususan, soliq yukining notekis taqsimlanishi, ayrim yirik korxonalarga berilayotgan soliq imtiyozlarining ularga bozorda ustunlik berishi natijasida kichik va o'rta biznesning raqobatbardoshligini pasaytirishi kuzatiladi.

Ayrim strategik tarmoqlarda faoliyat yurituvchi monopoliya subyektlari uchun soliq yukining ancha past bo'lishi ham raqobatga ta'sir etuvchi muhim omildir.

Soliq imtiyozlarini normativ-huquqiy hujjatlar kesimida tahlil qilganimizda, 1-jadval ma'lumotlari asosida bir qator muammoli holatlarni kuzatish mumkin. Jadvalda 2020–2024-yillar davomida turli normativ hujjatlar asosida berilgan soliq imtiyozlarining soni va summasi (mlrd so'mda) aks etgan.

Umumiy ko'rsatkichlarning tahlili natijasiga ko'ra:

- imtiyozlar holati 2020-yilda 172 835 ta bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 181 664 tani tashkil etib, 5 % o'sishga erishilgan;
- imtiyozlar summasi 2020-yilda 31 065,6 mlrd so'm, 2024-yilda esa 72 565,8 mlrd so'mni tashkil etib, 133 % oshgan.

Mazkur o'sish dinamikasi 2021-yilda pasaygan, 2022-yilda keskin ko'tarilgan, 2023-yilda biroz kamaygan va 2024-yilda eng yuqori darajaga yetgan. Bu esa ayrim organlar tashabbusi bilan berilayotgan bir yoqlama va samarasiz imtiyozlar hajmi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida byudjet–soliq siyosatini isloh qilish orqali ushbu samarasiz va bir tomonlama imtiyozlarni qisqartirish davlat byudjetiga sezilarli qo'shimcha tushumlar kelishiga hamda raqobat muhitining sog'lomlashuviga xizmat qiladi.

1-jadval. Normativ huquqiy hujjatlar kesimida 2020–2024-yillar davomida foydalanilgan soliq imtiyozlari tahlili mlrd so'm


Hudud nomi	Yillar kesimida									
	2020-yil		2021-yil		2022-yil		2023-yil		2024-yil	
	Holatlar soni	Summasi	Holatlar soni	Summasi	Holatlar soni	Summasi	Holatlar soni	Summasi	Holatlar soni	Summasi
Jami	172835	31065.6	57981	43899.6	146368	72963.7	152332	69777.9	181664	72565.8
Soliq kodeksi	91769	22995.5	43487	35202.7	94448	66262.4	110329	60766	135335	63254.8
Qonunlar	197	121.4	266	294	677	435.9	480	367.5	652	885.6
PQ lari	24804	2896.4	10113	4015.6	47382	2091.9	10611	4242.7	8036	3435.2
PF lari	49835	1108.7	2635	949	1891	2030.9	29852	2725.6	35741	3794.1
VM qarorlari	5410	3613.6	1009	2761.1	1184	1339.1	396	708.8	1215	410.0
Boshqa hujjatlar	820	329.9	471	677.2	786	803.5	664	967.3	682	786.1

1-jadval ma'lumotlarining tahlili

Soliq kodeksi asosida berilgan imtiyozlar bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, soliq imtiyozlari qo'llangan holatlar soni 2020-yilda 91 769 ta bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 135 338 taga, ya'ni 47 foizga oshgan.

Soliq imtiyozlari summasi esa 2020-yilda 22 995,5 mlrd so'm, 2024-yilda esa 63 254,8 mlrd so'mni tashkil etib, 175 foizga ko'paygan.

Ushbu keskin o'sish, avvalo, Soliq kodeksiga kiritilayotgan imtiyozlar mazmun-mohiyatining yetarlicha chuqur tahlil qilinmasligi, shuningdek, imtiyozlar joriy etilganda davlat budjetiga tushumlar kamayishi ehtimoli to'liq baholanmasligi bilan izohlanadi. Normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish jarayonida imtiyozlarning iqtisodiyotga ta'siri har tomonlama prognoz qilinishi lozim.



1-rasm. 2024 yilda berilgan soliq imtiyozlarini me'yoriy huquqiy hujjatlar kesimida yuqori ko'rsatkichli tahlili



Buning asosiy sabablaridan biri — Soliq kodeksida tadbirkorlik subyektlari uchun yengilliklar joriy etilgan bo'lib, QQS, foyda solig'i va ijtimoiy soliq bo'yicha imtiyozlar kengaytirilgan. Shuningdek, 2022 yilda qonunchilikdagi o'zgarishlar va islohotlar ta'siri katta bo'lgan. Bu esa o'z navbatida davlat budjetiga sezilarli darajada daromadlar tushumi kamayishiga olib kelgan.

2- jadval. Normativ huquqiy hujjatlar kesimida 2020–2024 yillar davomida foydalanilgan soliq imtiyozlarining o'sish ko'rsatkichlari tahlili (mlrd so'm)

Hudud nomi	Soliq imtiyozlarining o'tgan yillarga nisbatan o'sish ko'rsatkichlari									
	2020 yil		2021 yil		2022 yil		2023 yil		2024 yil	
	Summa	Jamiga nisbatan%	Summa	Jamiga nisbatan%	Summa	Jamiga nisbatan%	Summa	Jamiga nisbatan%	Summa	Jamiga nisbatan%
Jami	31065.6	100	43899.6	100	72963.7	100	69777.9	100	72565.8	100
Soliq kodeksi	22995.5	74	35202.7	80.2	66262.4	90.8	60766	87.1	63254.8	87.2
Qonunlar	121.4	0.4	294	0.7	435.9	0.6	367.5	0.5	885.6	1.2
PQ lari	2896.4	9.3	4015.6	9.1	2091.9	2.9	4242.7	6.1	3435.2	4.7
PF lari	1108.7	3.6	949	2.2	2030.9	2.8	2725.6	3.9	3794.1	5.2
VMQ lari	3613.6	11.6	2761.1	6.3	1339.1	1.8	708.8	1.0	410.0	0.6
Boshqa hujjatlar	329.9	1.1	677.2	1.5	803.5	1.1	967.3	1.4	786.1	1.1

2-jadval ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, o'tgan 2024 yil davomida soliq imtiyozlari tahlili quyidagicha ko'rinadi:

Soliq kodeksiga asosan berilgan imtiyozlar jami imtiyozlarning 87,2 foizini,

qonunlarga asosan berilgan imtiyozlar 1,2 foizini,

Prezident qarorlariga asosan — 4,7 foizini,


Prezident farmonlariga asosan — 5,2 foizini,

Vazirlar Mahkamasi qarorlariga asosan — 0,6 foizini,

boshqa normativ hujjatlarga asosan berilgan imtiyozlar esa 1,1 foizini tashkil etganini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu tahlillar shuni anglatadiki, soliq imtiyozlaridan aksariyat hollarda bir tomonlama, subyektiv yondashuv asosida foydalanilmoqda. Bu esa ayrim hokimiyat organlari (Qonunchilik palatasi deputatlari, Prezident va boshqalar) manfaatlarini ko'zlab joriy etilayotgan imtiyozlarning:

- davlat budjetiga tushadigan mablag'larning asossiz kamayishiga,
- mamlakatda sog'lom raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga olib kelayotganini anglatadi.



2-rasm. 2020–2024 yillarda berilgan soliq imtiyozlarini me'yoriy huquqiy hujjatlar kesimida yilma-yil o'sish ta'sirining gistogramma tahlili

Ushbu tahlillar natijasida nafaqat yil sayin soliq imtiyozlari hajmi oshib borayotganini, balki buning natijasida davlat byudjetiga olinayotgan qarzlarning hajmi ham ortib borayotganini ko'rish mumkin. Bu esa kelajakda davlat byudjeti barqarorligiga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin.

Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq inspeksiyasi ma'murchiligidagi korxonalarning tovar aylanishi tahlili, asosan, ularning moliyaviy faoliyati, bozor ulushi va soliq majburiyatlarini bajarish holatini baholashga qaratilgan. Ushbu tahlil tovar aylanishi dinamikasi, tarkibi va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish orqali amalga oshiriladi.

Birinchi navbatda, tovar aylanishi hajmining yillik o'sish sur'atlari tahlil qilinadi. Bu jarayonda aylanish summolari, ularning o'tgan yillar bilan solishtirilishi hamda soliq tushumlariga ta'siri o'rganiladi. Yirik korxonalar tovar aylanishining oshishi davlat byudjetiga tushumlarning ko'payishiga sabab bo'lishi mumkin, aksincha, pasayish soliq tushumlarida risklarning kuchayishiga olib keladi.

Ikkinchidan, tovar aylanishining tarkibiy tuzilishi tahlil qilinadi. Unda asosiy mahsulot va xizmat turlari, ichki va tashqi bozordagi sotuvlar miqdori, eksport va import ko'rsatkichlari inobatga olinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq imtiyozlarining aksariyati Soliq kodeksiga asoslanib joriy etilgan bo'lsa-da, ularning bir qismi bir tomonlama, ya'ni subyektiv xarakterga ega ekani kuzatildi. Prezident qarorlari asosida 4,7 foiz, farmonlar asosida esa 5,2 foiz miqdorida qo'llanilgan soliq imtiyozlari 2024-yilda jami 7,2 trln so'mni tashkil etib, davlat byudjeti barqarorligiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatganini anglatadi.

Kelgusida soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligini ta'minlash maqsadida ularni faqat Soliq kodeksi orqali, chuqur iqtisodiy-huquqiy tahlil asosida joriy etish maqsadga muvofiqdir. Buning natijasida:

- Asossiz, bir tomonlama va subyektiv soliq imtiyozlarining oldi olinadi.
- Davlat byudjetiga qo'shimcha 7,2 trln so'm miqdorida daromadlar undirilishiga sharoit yaratiladi.
- Byudjet taqchilligini qoplash uchun tashqi qarz va xorijiy kreditlarga bo'lgan ehtiyoj kamayadi.
- Soliq siyosati barqarorligi va prognoz qilinuvchanligi oshadi, investorlar uchun yanada ishonchli fiskal muhit shakllanadi.
- Resurslarning samarasiz taqsimlanishiga olib keluvchi imtiyozlar qisqartiriladi hamda soliq bazasining kengayishi orqali o'sish sur'atlari mustahkamlanadi.

Umuman olganda, soliq imtiyozlarini joriy etish jarayonini institutsional yondashuv asosida takomillashtirish fiskal barqarorlikka, iqtisodiy samaradorlikka va byudjet intizomini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T.: "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi, 2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi ["2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"](#)gi PF–60-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-iyundagi ["O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"](#)gi PQ–181-son Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi ["O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"](#)gi PF–4947-son Farmoni.
5. Gechert, S., & Heimberger, P. (2022). Do corporate tax cuts boost economic growth? *European Economic Review*, 147, 104157.
6. Challoumis, C. (2024). Understanding the Cycle of Money – Its Impact on Tax Policy and Economic Growth. *SSRN Electronic Journal*.
7. Alinaghi, N., & Reed, W. R. (2021). Taxes and economic growth in OECD countries: A meta-analysis. *Public Finance Review*, 49(1), 3–40.
8. Nguyen, H. T., & Darsono, S. N. A. C. (2022). The impacts of tax revenue and investment on the economic growth in Southeast Asian countries. *Journal of Accounting and Investment*, 23(1), 128–146.
9. Sharif, A., Kocak, S., Khan, H. H. A., Uzuner, G., & Tiwari, S. (2023). Demystifying the links between green technology innovation, economic growth, and environmental tax in ASEAN-6 countries: The dynamic role of green energy and green investment. *Gondwana Research*, 115, 98–106.
10. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi rasmiy veb-sayti – [Soliq.uz](#).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100